



Farangiz ANVAROVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: farangizanvarova9624@gmail.com

TerDU dotsenti, DSc N.Yo'ldoshev taqrizi asosida

DEN BRAUNNING "FARISHTALAR VA IBLISLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN "HELL" VA "DAMN" SO'ZLARINING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqola Den Braunning "Farishtalar va Iblislar" asarida uchraydigan "hell" va "damn" so'zlarining semantik tahliliga bag'ishlangan. Semantikaning tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri ekanligi badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida ham yaqqol ko'zga tashlanishi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Unda ushbu so'zlarning asl lug'aviy ma'nolari va konnotativ ma'nolari o'rtasidagi ba'zi tafovutlar tahlil qilingan. Semantik jihatdan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan bu ikki so'zning asarning turli o'rinlarida mos ravishda sinonim sifatida qo'llanilganligi bir qancha misollar yordamida ko'rib chiqilgan. "Hell" so'zining ibora tarkibida kelishi va ba'zi o'rinlarda pozitiv ma'noni ham ifodalab kelishi bo'yicha ham misollar berilgan.

Kalit so'zlar: Semantika, semantik tahlil, sinonim, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, tarjima jarayoni.

A SEMANTIC ANALYSIS OF THE WORDS «HELL» AND «DAMN» USED IN «ANGELS AND DEMONS» BY DAN BROWN

Annotation

This article is devoted to the semantic analysis of the words "hell" and "damn" found in "Angels and Demons" by Dan Brown. There are opinions and comments about the fact that semantics is one of the main branches of linguistics, which is clearly visible in the process of translating works of fiction. It analyzes some differences between the original denotative meanings and connotative meanings of these words. The fact that these two words, whose meanings are close to each other in terms of semantics, are used as synonyms in different places of the work is considered with the help of several examples. There are also examples of how the word "hell" appears in the phase and in some places it also expresses a positive meaning.

Key words: Semantics, semantic analysis, synonym, denotative meaning, connotative meaning, translation process.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОВ «HELL» И «DAMN», ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В «АНГЕЛЫ И ДЕМОНЫ» ДЭНА БРАУНА

Аннотация

Данная статья посвящена семантическому анализу слов «hell» и «damn», встречающихся в произведении Дэна Брауна «Ангелы и демоны». Существуют мнения и комментарии о том, что семантика является одним из основных разделов языкознания, что хорошо видно в процессе перевода художественных произведений. Анализируются некоторые различия между исходными словарными значениями и коннотативными значениями этих слов. На нескольких примерах рассматривается тот факт, что эти два слова, значения которых близки по семантике, используются как синонимы в разных местах произведения. Также есть примеры того, как слово «hell» появляется во словосочетании и в некоторых местах оно выражает и положительный смысл.

Ключевые слова: Семантика, семантический анализ, синоним, денотативное значение, коннотативное значение, процесс перевода.

Kirish. XX asrning boshlariga kelib tilshunoslikning boshqa sohalarini kabi semantikaga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. So'zning ikki tomoni: shakl va ma'no bo'lib, ma'no jihatiga bo'lgan qiziqish ko'proq. So'zning ma'nosini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi – semantika. So'zning o'z ma'nosi va badiiy asarlarda uchraydigan qo'shimcha ma'nolarini o'rganish turli tadqiqotlarning obyektiga aylanib ulgurgan. O'zbekistonda ham boshqa tillarda yozilgan badiiy asarlarning tarjimasiga bag'ishlangan ishlarni ko'plab uchratamiz. Bu kabi ishlarda, asosan, original inglizcha varianti va o'zbekcha tarjimalari chog'ishtirilib, ba'zi o'zgarishlar o'zaro taqqoslanadi.

Asosiy qism. Semantika yunonchadan olingan bo'lib, "bildiruvchi, ifodalovchi" degan ma'noni bildiradi va ikki xil talqin qilinadi. Birinchisi, til yoki uning biron bir birligi (so'z, so'zning grammatik shakli, frazeologizm, so'z birikmasi, gap) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma'no, axborot; ikkinchisi, turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi sanaladi. Semantikaning o'rganish obyekti ham, asosan, to'liq, mustaqil ma'noli so'zlar va gaplarning ma'nolarini tizimdir. Semantika fan sifatida XIX asrning 2-yarmidan rivojlana boshlagan va hozirgacha yana turli tarmoqlarga bo'lingan. Ular quyidagilar:

Leksik semantika - so'z ma'nosini o'rganadigan semantika bo'limi. U so'zlarning bir yoki bir nechta ma'noga ega

ekanligini va ular bir-biri bilan qanday leksik aloqada turishini tekshiradi.

Frazaviy semantika - gaplarning mazmunini kompozitsiyaviylik hodisasini yoki so'zlarni tartibga solish orqali yangi ma'nolar yaratishni o'rganadi.

Rasmiy semantika - til va ma'no o'rtasidagi munosabatlarning aniq asoslarini ta'minlash uchun mantiq va matematikaga tayanadi.

Kognitiv semantika - ma'noni psixologik nuqtai nazardan ko'rib chiqadi va til qobiliyati va dunyoni tushunish uchun ishlatiladigan kontseptual tuzilmalar o'rtasidagi yaqin aloqani nazarda tutadi [7].

Leksik semantika ba'zi umumiy ma'no xususiyatlariga ega bo'lgan turli so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi, masalan: 1. Monosemiya: so'zlarning yagona ma'nosi ya'ni bitta so'z faqat bitta ma'noga ega bo'ladi. Bunga misol qilib ko'proq terminlarni olishimiz mumkin; 2. Ko'p ma'nolilik: so'zlar bir necha xil ma'noga ega bo'lishi mumkin; 3. Omonimiya: imlosi bir xil yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlarning turli ma'nolari ya'ni "tut" so'zini oladigan bo'lsak, ham harakatni bildiradi, ham mevali daraxtning nomi hisoblanadi; 4. Paronimiya: juda o'xshash so'zlar, lekin ularning ma'nosi boshqacha, masalan, "ellik va enlik" yoki "davo va da'vo"; 5. Sinonimiya: shakl jihatidan farq qilsada, bir xil ma'no anglatuvchi so'zlar ya'ni kulmoq, tirjaymoq va tabassum qilmoq kabilar. Sinonimlar ayni bir til vakilida ayni

bir davrda qo'llanadigan bir turkum doirasidagi so'zlardan tashkil topadi. Ular chet tilidan, shevalardan adabiy tilga so'z o'zlashtirish hisobiga boyiydi [4]; 6. Antonimiya: qarama-qarshi ma'noli so'zlar, masalan, yorug'-qorong'u kabi [7].

Ma'noni ifodalash semantik tahlilda juda muhim, chunki: 1. Bu gapning lingvistik elementlarini lingvistik bo'lmagan elementlar bilan bog'lashda yordam beradi; 2. Bu aniq ma'lumotlarni leksik darajada ifodalashga yordam beradi; 3. Bu to'g'ri ma'lumotlarni tahlil qilish va tekshirishga yordam beradi [5].

Ma'no haqida gap ketar ekan, denotativ va konnotativ ma'no turlariga to'xtalishimiz o'rindir. So'zning denotativ ya'ni atash ma'nosi uning til tizimida muhim lug'aviy birlik ekanligini anglatadi. Konnotativ ma'no esa so'zning lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha ya'ni uning funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi va uslubshunoslikning muhim obyektiga aylantiruvchi ma'nosidir.

V.N. Teliyaning ta'rificha, konnotatsiya bu til birliklari semantikasiga uzual va okkazional ravishda kiradigan, nutq sebekting borliqni jumlada ifodalashda uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy-baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyatdir [6].

Ma'lum bir so'z nutqdan tashqarida o'zining asl, lug'aviy ma'nosiga ega bo'lsa, turli kontekstlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin, ayniqsa, badiiy asarlarda bunday holat ko'p uchraydi. Bundan ko'zlangan maqsad, albatta, ta'sirchanlik va hissiy bo'yqordorlikni oshirish desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Den Brauning "Farishtalar va Iblislar" asarida ham bunday holatni kuzatishimiz mumkin. Ushbu asarda qo'llanilgan "hell" va "damn" so'zlari bunga misol bo'la oladi.

Bu ikki so'zning asl, lug'aviy ma'no-lariga to'xtaladigan bo'lsak, "hell" so'zi diniy va mifologik kontekstda "do'xax" yoki "janozat" degan ma'noni anglatadi. Odatda, bu so'z yomon ishlarga mukofot sifatida, axloqiy yoki ruhiy jihatdan jazolanish joyi sifatida tasvirlanadi. Masalan, "He believes that evil people will go to hell after they die – U yomon odamlar o'lgandan keyin do'xaxga ketadi, deb ishonadi". Hell so'zi qadimgi inglizcha "helle" dan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z ham Skandinav madaniyatidagi "janozat" yoki "do'xax" joyini anglatgan. Bu so'zning ildizi "helen" leksikasi bilan bog'liq bo'lib, u "berkitish", "yashirish" ma'nosini anglatadi. Sinonimi – inferno, antonimi – heaven.

Oxford lug'atiga ko'ra, "hell" so'zi turli dinlarda shaytonning ruhdagi hukmronligi va aybdorlarning o'limidan so'ng yer ostidagi doimiy olovli joyda jazolanishi bilan tasvirlanadi. Masalan, "Irreligious children were assumed to have passed straight to the eternal fires of hell". Yana bir ma'nosi - qattiq azobli holat yoki jarayon. Masalan, "He made her life hell". Ba'zida esa bu so'z jahl, hayratlanish yoki hurmatsizlik ko'rsatish uchun ham qo'llaniladi. Masalan, "Oh hell – where will this all end?".

"Damn" so'zining asosiy ma'nosi "lahzali jazosini berish", "yomonlash" yoki "la'nati" degan ma'noni anglatadi. Odatda, hissiy va shaxsiy noqulaylikka olib keluvchi holatlarda qo'llaniladi. Ushbu ibora ko'pincha hissiy chiqishlarda, kuchli ruhiy holatlarda yoki shaxsiy munosabatlarda qo'llaniladi. U, asosan, qahrilanish yoki ma'lum bir narsaning salbiy tomonini va ko'pincha la'natni ko'rsatish uchun ishlatiladi. "Damn" so'zi lotincha "damnare" (jazo berish) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ingliz tilida esa bu so'z tarixiy ravishda ko'p asrlar davomida ishlatilgan. Sinonimi – condemn, antonimi – bless.

Oxford lug'atida "damn" so'zi Xudo tomonidan ayblanib, do'xaxdagi abadiy va cheksiz jazodan azoblanish kabi tarjima qilinadi. Yana bir ma'nosi – kuchli tanqid qilish demakdir. Masalan, "The book damns her husband". Yoki jahl va g'azablanish kabi ma'nolarni ham anglatadi. Masalan, "Damn! I completely forgot!". Xuddi shu ma'noda sifat so'z turkumi bo'lib ham keladi. Masalan, "Turn that damn thing off!".

"Farishtalar va Iblislar" asarining deyarli har bir bobida bu so'zlardan birini uchratishimiz mumkin. Chunki asar roman-triller bo'lib, unda asosiy voqealar rivoji asar qahramonlarining g'azabi va nafratiga sabab bo'ladi. E'tiborli tomoni shundaki, bu so'zlar asarda sinonimlar tarzida ishlatilgan. Quyida bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz:

A familiar woman's voice shouted at him. "Place the damn call!" Asarning 38-bobida keltirilgan ushbu jumla o'zbek tiliga shunday tarjima qilingan: - Tanish ayolning ovozi unga baqirdi. – La'nati telefonga meni ulab bering! Ushbu misoldagi "damn" so'zi o'zbek tiliga "la'nati" deb tarjima qilingan. Tarjimon to'g'ridan-to'g'ri tarjima usulidan foydalangan va maqsadga erishilgan ya'ni gapning mazmuni uning original varianti bilan semantik jihatdan bir xil.

Glass walls, he told himself. But damn thick glass. Asarning 86-bobidan olingan bu jumla o'zbek tiliga shunday tarjima qilingan: "Devorlar shishadan qilingan, - dedi u o'ziga. – Lekin, jin iursin, qalin shishadan qilingan". "Damn" so'zi bu yerda "jin ursin" deb tarjima qilingan. Asarda bu so'z ko'p hollarda "damn it" ko'rinishida uchraydi.

"What the hell are you talk –" Olivetti stopped short, his eyes rocketing wide as though he'd just been punched in the gut. Asarning 41-bobida keltirilgan diologdan parcha o'zbek tiliga shunday tarjima qilingan: - Jin ursin, nima haqida gapiryapsiz... - Olivetti birdaniga to'xtab qoldi. Xuddi hozirgina unga musht tushirishganday ko'zlari chanog'idan chiqib ketgudek qaradi. Tarjimon bu o'rinda kontekstning ma'nosidan kelib chiqqan holda "hell" so'zini "jin ursin" deb tarjima qilgan ya'ni so'zning konnotativ ma'nosini yaratgan. Bu bilan tarjimon "hell" so'zini "damn" so'zi bilan sinonim sifatida qo'llagan. Balki, inglizlarning og'zaki nutqida bu so'z shunaqa ma'no anglatar.

Langdon wheyeled, reality returning as his eyes dropped where she was pointing. "Bloody hell!" he shouted, jumping backward. Asarning 65-bobidan olingan navbatdagi jumla o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan: Lengdon tez o'girilib qaradi va haqiqiy dunyoga qaytib, qiz ishora qilayotgan tomonga – o'zining oyoqlari ostiga qaradi. - Bu nima balo?! – deya Lengdon chetga sakrab, xitob qildi. Ushbu misoldagi "Bloody hell!" birikmasi "Bu nima balo?!" deya tarjimona tomonidan mohirona tarjima qilingan. Bu o'rinda "hell" so'zi o'zining asl ma'nosida emas, balki idiomaning bitta tarkibiy qismi bo'lib kelgan va tarjima jarayonida ma'no saqlab qolingan.

Why couldn't the Swiss Guard trace that damn caller? The Illuminati assassin is the key! He knows where the antimatter is ... hell, he knows where the cardinals are! Catch the killer, and everything is solved. Asarning 45-bobida keltirilgan endigi jumlada ham "damn" so'zi, ham "hell" so'zi ketma-ket qo'llanilgan. Keling, o'zbek tilidagi tarjimasini ko'rib chiqamiz: - Nega Shveytsariya gvardiyasi bu la'nati qo'ng'iroq qayerdan qilinganini aniqlay olmadi? Shu qotil – barcha muammolarning asosiy sababchisi! U antimateriyaning qayerdaligini biladi, kardinallarning qayerdaligini biladi! Qotilni ushlang, shunda hamma muammo hal bo'ladi, - deya zorlandi Vittoriya. Bu o'rinda tarjimon "damn" so'zini "la'nati" deya o'z ma'nosida tarjima qilgan, ammo "hell" so'zi tarjima jarayonida tushirib qoldirilgan ya'ni tarjima qilinmagan, o'rinda ko'chirma gap tarkibida muallif gapini keltirib o'tgan " – deya zorlandi Vittoriya" tarzida. Bu yerda "zorlandi" so'zi ayni qahramonning nutqidagi qanaqadir xavotirni bildirib turibdi.

"Hell" asarda o'z ma'nosida ham ishlatilgan. Quyida asarning 89-bobidan olingan misolning tarjimasi bilan birgalikda tahlil qilamiz: The guard nodded. "Don't spill any. Smells like heaven, but burns like hell." – To'kib yuborma, - deb javob berdi soqchi tasdiqlagandek bosh iring'ab. – Jannat hidini beradi, lekin do'xax alangasi bilan yonadi. Bu jumlada "hell" so'zi o'zining asl ma'nosida kelgan. Buni kontekstdan kelib chiqib aytak ham bo'ladi, chunki "heaven" so'zining antonimi sifatida yonma-yon kelgan.

The muted, yellow papyrus left no doubt in Langdon's mind as to its age and authenticity, but excluding the inevitable fading, the document was in superb condition. Slight bleaching of the pigment. Minor sundering and cohesion of the papyrus. But all in all ... in damn fine condition. Asarning 52-bobidan olingan navbatdagi misol o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan: Sarg'aygan, biroz rangi qochgan papiirusni ko'rib, uning qadimiyligi va haqiqiyligiga shubha qolmadi. Uning eskiligi hisobga olmaganda, hujjat juda yaxshi holatda edi. "Pigment sal rangsizlashgan ... papiirus yuzasi qirilgan ... lekin umuman olganda juda yaxshi holatda", – deya o'yladi Lengdon. Navbatdagi misolda esa biz umuman boshqa bir ma'noga duch

kelamiz. Agar parchaning ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u butunlay ijobiy ma'noda ekanligini bilib olish juda oson. Hech qanday nafrat yoki biror narsadan g'azablanish ohangda gap ketmayapti. Aksincha, qandaydir bir qadimgi qo'lyozmaning yaxshi saqlanganligi haqida aytilyapti va "damn" so'zi pozitiv fikrni to'ldirish maqsadida qo'llangan. Bu holat kamdan-kam uchraydi.

Xulosa. So'zning ma'nosi bilan ish olib borish tilshunoslikning har bir sohasi uchun xosdir. Ayniqsa, badiiy adabiyotda bu muhim sanaladi. Badiiy asarlarda bitta so'z turli ma'nolarda kelishi mumkin. Chunki ma'lum bir milat dunyoqarashi, e'tiqodi va madaniyati badiiy asarlarda o'z aksini topadi. Shuning uchun tarjimondan ulkan salohiyat talab qilinadi. Balki, tarjima sohasiga kamdan-kam kishi qo'l urishi bejizga emasdir.

ADABIYOTLAR

1. «Semantics: An Introduction to Meaning in Language» - Kate Kearns (Cambridge University Press, 2000).
2. «Semantics: A Coursebook» - James R. Hurford, Brendan Heasley, and Michael B. Smith (Cambridge University Press, 2007).
3. Dan Brown. "Angels and Demons". – USA: "Pocket books", 2000.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: "Mumtoz so'z", 2010.
5. Allaberganova N.M. "Semantik tahlil", - International scientific journal "Interpretation and researches", 2023.
6. Nasirdinov O.A. "Leksik va tarkibiy semantika – semantikaning turlari sifatida", – «Экономика и социум» №7(110) 2023.
7. Zaynobbiddinova G.B. "So'z semantikasining asoslari", – "International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory", 2025.
8. Abdullaeva Marhabo Raxmonkulovna. "Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima yaratishi va o'ziga xos xususiyatda", - Innovation, integration va ta'lim bo'yicha xalqaro ma'lumot jurnali. 2021.
9. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – T., 2016.
10. Дэн Браун "Фаришталар ва Иблислар". – Тошкент, ИЛМ-ЗИЁ ЗАКОВАТ, 2023.
11. <https://uz.wictionary.org/wiki>.